

## **Kattaqo‘rg‘on shahar hokimining qarori**

2021 йил 29 октябр

№ 80-7-106- Q/21

Kattaqo‘rg‘on shahar

### **Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiyonalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g’risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Aholini ish bilan ta’minalash to‘g’risida”gi Qonunning 17-moddasi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998 y, 5-6-son, 97-modda;) hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi 965-sonli “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiyonalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi qarori ijrosini ta’minalash hamla shahar hududida joylashgan korxonalarda ish o‘rinlarining eng kam miqdorini belgilash yuzasidan berilgan takliflarni inbatgga olib,

#### **Q A R O R Q I L A M A N:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Aholini ish bilan ta’minalash to‘g’risida”gi Qonuning 17-moddasiga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiyonalayotgan shaxslar toifalari uchun ish o‘rinlarini band qilishi lozim bo‘lgan shaxardagi korxona, tashkilot va muassasalar ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Qayd qilingan korxonalar, tashkilotlar va muassasalar quyidagi ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiyonaladigan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlashishga qodir bo‘limgan shaxslar toifalari uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yishni ta’minalasin:
  - 14 yoshga to‘limgan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalari uchun - 41.8% (165 kishi);
  - Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarining, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarini tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar uchun - 12.9 % (51 kishi);
  - “Mehribonlik” uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari buyicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun - 26.3 % (104 kishi);
  - O‘zbekiston Respublikasi Mudofa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qo‘sishlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo’shatilgan shaxslar uchun - 2.5 % (10 kishi);
  - Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun - 2.5% (10 kishi);
  - Pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun – 10.1 % (40 kishi);
  - Jazoni ijro etish muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy yo‘sindagi majburlov choralar qo’llanilgan shaxslar uchun – 2.1% (10 kishi);
  - odam savdosidan jabrlanganlar uchun 1.0 % (4 kishi);

2. 2021 yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni joylashtirish uchun ish o'rinalarini 2022 yil uchun band qilib qo'yish lozim bo'lgan korxonalar ro'yxati 1-ilovaga asosan tasdiqlansin.

3. Korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlariga ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ish bilan ta'minlash uchun 2021 yil yakunlashidan 10 kun oldin kvota ish joylari umumiyligi miqdorining kamida 25 foizi uchun, 2022 yilning 10 apreliдан kechikmay ish joylarining qolgan qismi 75 foizini barpo etish (ajratish yoki band qilib qo'yish) to'g'risidagi, ya'ni har bir kvota toifasi bo'yicha ish o'rinalari band qilib qo'yiladigan kasblar va lavozimlar, mutaxassisliklar kesimidagi ma'lumotlarni va qaror bo'yicha chiqarilgan buyruq nusxalarini shahar Bandlikka ko'maklashish markaziga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

4. Korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ish joylarining ko'rsatib o'tilgan miqdorini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinalining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo'yish tartibi to'g'risida" gi Nizomga muvofiq belgilangan muddatlarda va tartibda yaratilishini (ajratilishini yoki band etib qo'yilishini) hamda ish joylari sanitariya gigiena normalariga va xodim o'z majburiyatlarini bemalol bajarishini ta'minlaydigan mehnat sharoitlariga muvofiq bo'lishini ta'minlasinlar.

5. Ushbu qaror ijrosini bajarilmagan taqdirda tashkilotning mansabdor shaxslariga "Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinalini band qilib qo'yish tartibi to'g'risidagi Nizom"ning 15-bandiga muvofiq qonun doirasida jarima solinsin.

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinalining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo'yish tartibi to'g'risidagi Nizom" ga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishga qiynalayotgan shaxslar uchun band qilib qo'yiladigan ish o'rinalini shahar hokimi tomonidan belgilangan miqdorda ortiqcha tashkil etgan tashkilotlar ushbu o'rinalini tashkil etishga sarflangan mablag'larining bir qismini shahar Bandlikka ko'maklashish markaz bilan tuzilgan shartnoma asosida Bandlikka ko'maklashish jamg'armasi mablag'lari hisobidan qoplash huquqiga ega ekanliklari inobatga olinsin.

7. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining "O'zbekiston Respublikasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan subsideya va grantlar ajratish tartibi to'g'risida Nizomni tasdiqlash haqida"gi (AV ro'yxat raqami №-3163-son, 31.05.2019 y) buyrug'iga asosan subsidiyalar ajratib berish tartibi amaliyatga joriy etilganini hisobga olib, "ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvatalangan sonidan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga har bir xodim uchun 12 oy davomida xar oyda eng kam oylik ish haqining 2 barobari miqdorida haq to'lash" belgilansin.

8. Shahar Bandlikka ko'maklashish markazi direktori (R.Murodqosimov) bir hafta muddatda mazkur qarorni tegishli korxona va tashkilot rahbarlariga yetkazsin hamda uning bajarilishi ustidan qat'iy nazoratni ta'minlasin.

9. Shahar hokimining 2020 yil 29-sentyabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o’rinlarini 2021 yil uchun band qilib qo’yish to’g’risida”gi 294-Q sonli qarori 2021 yilning 31-dekabridan o’z kuchini yo’qotgan deb hisoblansin.

10. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

11.Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining birinchi o’rinbosari B.Soipov zimmasiga yuklansin.

**Kattaqo’rg’on shahar hokimi:**

**G.Alimova**

